

**ISSN:3060-4567 Modern education and development**  
**XORIJIY DAVLATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING**  
**VARIATIV SHAKLLARI( YAPONIYA, XITOIY, BUYUK BRITANIYA**  
**VA RASSIYA MISOLIDA)**

***Nuritdinova Shodiya Mahmudjon qizi***

*Guliston davlat pedagogika instituti magistranti*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiyaning mamlakatimizda va xorij davlatlari Yaponiya, Xitoy, Buyk Britaniya va Rossiya ilg'or tajribalari qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Rivojlangan xorijiy davlatlar maktabgacha ta'lim sohasidagi tajribalarni o'rganish hamda ushbu tajribalardan foydalanib, mamalakatimiz maktabgacha ta'lim sohasida keng qamrovli islohatlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirish kerakligi haqidagi fikr mulohazalar yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** Maktabgacha ta'lim, tarbiya, nodavlat maktabgacha ta'lim muassalari, nutq, muloqot o'qish va yozish malakalari, qo'shimcha ta'lim xizmatlari, o'yin.

***Abstract:*** In this article, the best practices of preschool education in our country and foreign countries, Japan, China, Great Britain and Russia, are studied on the basis of comparative analysis. Opinions on the need to study the expriences of developed foreign countries in the field of preschool education and use these experiences to carry out comprehensive reforms and restructuring in the field of preschool education in our country are highlighted.

***Keyword:*** preschool education, education, non-governmental preschool institution, speech, communication, reading and writing skills, additional aducation services, game

***Kirish:***

Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizimini to'la boshqarish tizimlarini shakllantirish hamda tadbiq qilish - davlat ta'limi siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki Maktabgacha ta'lim uzliksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini sifatida bugungi kunda katta e'tibor, buyuk islohatlar va tinimsiz rivojlanishni talab etmoqda.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yeti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi [1]

Chet mamlakatlarda o'sayotgan avlodning qay tarzda tarbiyalanishga qiziqish qadim davrlardayoq mavjud edi. Yunon tarixchisi Gerodot Bobil va Misrda yoshlar tarbiyasiga oid hikoyalar aytgan bo'lsa, Rim tarixchisi Tassit qadimgi german qabilalariga oid o'ziga xos xususiyatlarni qayd etib o'tgan edi. O'sha davrlardayoq, mamlakatlarning yosh avlodni tarbiyalash ishlarini yaxshilashda qo'shni mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadi tez-tez ko'rib turgan.

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.[2]

O'z navbatida mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish va faoliyatini isloh qilishga qaratilgan bir qancha qonun hujjarlari ishlab chiqarildi va ularda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari, maqsad va vazifalari belgilab berildi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risidagi" gi

qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qaror va farmoyishlariga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga, va ushbu Nizomga va o‘z ustaviga muvofiq amalga oshiradi.[3]

**Asosiy qism:**

Filadelfiyaning Inson potensialini (imkoniyatlarini) rivojlantirish institutining direktori Glen Domanning fikricha insoniyat bosh miyasining eng yuqori rivojlanish davri 3 yoshgacha bo‘lgan davrini taqazo etar ekan. Ammo zamonaviy ta‘lim tizimlarining boshlanishi ushbu yoshning tugash vaqtiga ya‘ni 3 yoshdan keying to‘g‘ri kelishi bizga ma‘lum. 6 yoshdan keyin bilimlarni berilishi takrorlash jarayonini talab qiladi, shuning uchun til o‘rganishni maktabgacha yoshdan boshlagan ma‘qul hisoblanadi.

**Yaponiyada**

Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatida bolalar asosan 3 yoshdan bog‘chaga qabul qilinadi. Faqatgina juda majbur bo‘lgan oila farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin Masalan, Yaponiyada bolalar yaslga bolaga qarash markazlariga bolani uch oylikidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshdagi bolani yaslga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo‘lishi kerak. Shuningdek bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb hisoblanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun “eng asosiy” deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslsga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-onasi ish joyidan ma‘lumotnoma va oiladaboshqa bolaga qarab turish uchun oila a‘zosi yo‘qligi haqida hujjatlar taqdim etilishi kerak [4]bo‘ladi

Yaponiyada bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va bolalikdanoq qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatadilar. Qizlarni ham bolalikdanoq uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog‘chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-“xanlarga” bo‘ladi. Bu bolalarga bog‘chada o‘z ish o‘rnilari ajratiladi, ular o‘z “xanlariga” nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o‘rgatadilar. Bu guruhdagi har bir tarbiyalanuvchi guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga doir

ko'nikmalar shakllantiriladi. Yaponlar ekologik tarbiyaga ham katta e'tibor qaratishadi. Ular bugungi kunda preslangan chiqindilardan butun boshli bir orolni barpo etmoqda. Bunda albatta bolalarning ham hissi bor. [5]

### **Xitoyda**

Dunyo bozorini egallagan Xitoy davlati ham o'zining shunday yuksak choqqini zabt etishiga faqatgina ta'lim tarbiyani isloh qilish orqali erishdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Xitoy mahsulotlaridunyo bozorini to'ldirganligi buning yaqqol isbotidir. Agar Yevropa davlatlarida ota-ona bola tarbiyasidagi asosiy mas'ul bo'lsa, Xitoyda esa bu narsa Davlat zimmasidadir.

Uch oylikdan boshlab chaqaloq bog'chaga topshiriladi, bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqsga tushish, ashula aytish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga o'rgatila boshlaydi. Bog'chalarda tarbiya bilan birgalikda jismoniy rivojlanishga katta e'tibor beriladi. Bolaning qiziqishlarini inobatga olib, uning iqtidorini namoyish qilishga haqakat qilinadi. Boshlang'ich sinfdanoq intizomli bo'lish, injiqlik qilmaslik va yaxshi yaxshi o'qish talab etiladi, itoatkorli va "men"ni yuzaga chiqarmaslik Xitoy tarbiyasining asosidir.

Xitoylik bolalarda bolaligidanoq uchta asosiy fazilat: mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmat shakllantiriladi. Ularga yoshligidanoq, nima bo'lishidan qat'iy nazar, ular eng yaxshi bo'lishi kerakligi o'rgatiladi. Ehtimol shuning uchun xitoyliklar fan, madaniyat va san'atning barcha sohalarida yetakchi o'rinlarini egallab kelmoqdalar [6]

### **Buyuk britaniyada**

Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim berish kambag'al ishchi oilalar bolalariga ko'ngilli yordam berish harakatiga asosan vujudga kelgan. 1816 - yilda Robert Ouen ilk bor Shotlandiyada o'z fabrikasi ishchilarining farzandlari uchun bolalar bog'chasini tashkil etgan. Buyuk Britaniyada 1988 - yilda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni kuchga kirib, unda nafaqat ta'lim standartlari balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan.

Buyuk Britaniyada ta'limga yondashuvda odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi.

Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning taraqqiy etishida Russo, Frebel, Montessorilarning xizmati katta. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaganlar. Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining asosiy maqsadi har bir bolaga mustaqillik, erkinlik, o'z fikrini bayon qilish imkoniyatlarini yaratib berishda o'yinlardan ko'proq foydalanish shuningdek o'yin davomida uqtirish yo'li orqali emas balki yon bosish, qo'llab - quvvatlash yo'li bilan turli materiallar hamda borliqdagi voqea-hodisalar to'g'risida bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ingliz bolalar bog'chalarida bolalar har bir guruhda 25 nafardan ortiq bo'lmagan miqdorda bo'lib tarbiyalanadilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ingliz pedagoglarining 75 foizi bolalarni ta'lim olishga qiziqtirish uchun tashqaridan motivatsiya qilishni noma'qul deb hisoblaydilar (masalan bolalar o'rtasida musobaqalashishni) taklif qilmaydilar. Yoki musobaqalashish natijasiga ko'ra g'olib bo'lgan bola agar(rasm chizish misolida) mukofotlanadigan bo'lsa, qiziqishi uchun rasm chizmay balki mukofot uchun rasm chizishni xohlab qoladi natijada esa bolada ichki motivatsiya yo'qolib, tashqi motivatsiya o'rnini egallaydi. Ingliz bog'chalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bolalar ko'proq mustaqil shug'ullanadilar, pedagoglar esa ularni chetdan kuzatib turadilar. Umumiy vaqtning 15 foizi pedagog rahbarligida olib boriladi. Barcha tarbiyachilar bolalarning jismoniy rivojlanishi hamda ruhiy holatini diagnostikasi uchun mazmunli-rolli o'yinlar, rasm chizish hamda buyumlar yasash usulidan foydalanishi kerak, deb hisoblaydilar. Qolaversa ingliz bolalar bog'chalarida (til va matematika bo'yicha majburiy mashg'ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Buyuk Britaniyada maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida asosiy faoliyati gimnastika, raqslardan iborat bo'lib, mashg'ulotlar ochiq maydonlarda o'tkaziladi.[7]

### **Rassiyada**

Rassiyada birinchi xususiy bolalar bog'chasi 1960-yillarda tashkil etilgan va uning qimmatligi oddiy odamlarning hayotini qiyinlashtirgan, birinchi davlat bolalar bog'chasi 1866-yilda Maskvada ochilgan muassasa 3 yoshdan 8 yoshgacha

bolalarni qabul qilgan. MTT dasturi hech bo'lmaganda bolalarni maktabga tayyorlashni, o'qish yozish va arifmetikaning dastlabki bosqichlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda Rossiya MTT lari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni qabul qiladi. Alohida bog'chalar, aralash bog'chalar, qisqa muddatli ta'lim markazlari, maktabga tayyorlash markazlari mavjud. Aksariyat davlat MTTlarida oziq-ovqat tayyorlanmaydi va qayta ishlangan ovqatlardan foydalaniladi. Montessori ta'limoti asosida maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivijlanish, shaxsiy parvarish va gigiena, ijtimoiy emotsional rivojlanish, nutq, o'qish, va savodxonlikka tayyorgarlik, kognitiv jarayonlar va atrof muhit haqida bilimlar oladilar. Xususiy bolalar bog'chalari haftaning besh kuni soat 7:00 dan 19:00ga qadar ishlaydi. Xususiy bog'chalarda ota-onalar qo'l mehnati va boshqa xarajatlar bilan shug'ullanmaydi. Nodavlat bog'chalarda bolalarning xavfsizligi, dam olishi, sifatli ovqatlanishi, ta'lim tarbiya olishi yuqori saviyada tashkil etilgan. Bir guruhda bolalar soni 16 nafardan oshmaydi. Yuqori malakali o'qituvchilarga ega bo'lgan xususiy bolalar bog'chalari sarmoyaning yuqori narxiga qaramay doimo katta talabga ega.

Davlat bolalar bog'chalari uchun to'lov 5000 rublni tashkil etadi va bundan tashqari 2000 rubl turli xil qo'shimcha xarajatlar uchun to'lanadi. Shu bilan bir qatorda dam olish kunlari onalar derazalarni yuvadi, otalar esa singan stol-stullarni ta'mirlaydi.[8]

### **Xulosa**

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya usulini to'g'ri tanlash, ta'lim va tarbiyani uzviy bog'liq ravishda olib borish talab etiladi. Shunday bo'lsada Sharq mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiya ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqadi. Sababi ahloqiy tarbiya shaxs kamolotida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga fuqaro tarbiyasi bilan bog'liq ravishda shaxsda "davlatga mansublik", "vatanparvarlik", "mas'uliyatlilik", "hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish" kabi hislatlar shakllantiriladi. Tarbiyaning bu usuli millat tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Millatning qadriyatlarining anglashi, hurmat qilishi, ezgu g'oya va mafkuralar atrofida birlashishi albatta ularning yoshlikdan olgan tarbiyasiga bog'liq bo'lib qoladi. Xulosa o'rni shuni aytimiz mumkinki,

bugungi kunda maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv talab etiladi. Bunda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, tahlil qilish hamda filtrlash orqali milliy va zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish kerak bo'ladi. Masalan, bola tarbiyasi borasida yapon pedagoglari yosh yapon avlodini saqlab qolish vositasini O'zbekistondan topishdi. Bugungi kunda bizning ayrim odamlarimiz "zamonaviy emas", deb o'ynamay qo'ygan harakatli o'yinlarni to'plab, olib ketib, o'zlarining superzamonaviy bolalariga o'rgatishayotgan ekan. Sababi-zamonaviy bolalar o'yinlari haddan ortiq texnokratlashib ketgan. Ularda insoniy ruh, joziba, zavq va tuyg'ular kam. Demak, biz tarbiya usulida o'zimizning milliy tarbiya vositalarimizdan ham unumli foydalanishimiz kerak ekan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan didaktik o'yinlar bilan birga qatorda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan milliy o'yinlardan ham unutmashimiz kerak. Chunki bu o'yinlar o'ziga xos shunday xususiyatlarga egaki, u orqali bolalarda intimozlilik, uyushqoqlik, irodalilik kabi ijobiy fazilatlar muayyan harakatlar orqali shakllanadi. Albatta bunda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.[9, 634-bet] Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya vositasini tanlashda milliy xarakterdagi ahloqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi kabilardan voz kechmasdan xorijning ilg'or tajribalarini moslashtirish kerak bo'ladi. Shundagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat vujudga keladi. Bu jarayon esa o'z navbatida yangi O'zbekiston, uchinchi Renesans uchun sog'lom, bilimli va intellektual salohiyatli avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun 8-moddasi
2. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish ; Toshkent, 2019-152-bet
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qaroriga 1-ilova  
Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi  
NIZOM
4. <https://galitravel.ru/doshkolnoe-obrazovanie-v-yaponi>

5. Qilichova M.Kh, Hamrayeva E. Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 4, April 2021, P.669. Impact Factor:SJIF-2021=7.699.
6. Fazilatova D.X. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o‘quv uslubiy majmua. Jizzax, 2021,60-bet.
7. <http://sdo-10. journal.ru/journalnumbers/anglijskaja-sistema-do.html>
8. <https://tarbiyachilar.uz/rossiyada-bolalar-bogchasi/>